

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174343>

KOMIK HOLAT VA KOMIK OBRAZ HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Jo‘rayev Murodulla Alishboevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada komik xarakter va komik obraz muammosi hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari adabiyotshunos olimlarning qarshlari misolida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Komediya, komik xarakter, komik obraz, adabiyotshunos, sxematizm, tipiklik, tipik obraz.

Abstract: In the article, the problem of comic character and comic image and their specific features are analyzed on the example of arguments of literary scholars.

Key words: Comedy, comic character, comic image, literary critic, schematism, typicality, typical image.

Аннотация: В статье на примере рассуждений литературоведов анализируется проблема комического персонажа и комического образа, их специфические особенности.

Ключевые слова: комедия, комический персонаж, комический образ, литературный критик, схематизм, типичность, типический образ.

KIRISH

“Tipik obraz deyilganda, muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoit, davr va muhitga xos muhim xarakterli xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtira olgan obraz..”¹, -deb ta’riflanadi adabiyotshunoslik manbalarida. Darhaqiqat, tipik obraz o‘ziga davrning turli-tuman xususiyatlarini singdirib oladi. U bir tomondan, bu xususiyatlarning sintezi, ularning jonli birligi sifatida, ikkinchi tomondan, u dramaturgning g‘oya va qarashlarini o‘zida jamlaydi, uning hayotga munosabatini ifodalaydi. Biroq

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.-T: Xalq merosi. 2004 y. 77-bet.

xarakterning qimmati faqat g‘oyaviy quvvat bilan emas, balki yozuvchi uni yaratish uchun foydalangan materialning badiiy ishlovi-talqini bilan ham belgilanadi. Agar bu material, garchi o‘zining mazmuniga ko‘ra juda yuqori bo‘lsada, chuqur anglanmagan, muallifning boshidan kechirilmagan, qalban his qilinmagan bo‘lsa, unda san’at asarining o‘zi bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tipik obrazning kuchi uning ko‘p qirraliligida ham namoyon bo‘ladi. Moler va Shekspirning ijodiy usullarini qiyoslagan Pushkin shunday yozgan edi; “Molerda Xasis-xasis xolos, Shekspirda esa Sheylok-xasis, zehni o‘tkir, qasoskor, bolajon, hozirjavab.”¹

Takrorlanmas alohida tiplar ham xarakterlarning tasvirida ko‘pqirraligi va mukammalligi bilan ajralib turishadi. Bir tomonlama tasvir hamisha ishonchsiz bo‘ladi. U ko‘pincha sxematizmga olib boradi. Bunday obrazlarning g‘oyaviy-badiiy funksiyasi, sig‘imi doimo tor bo‘ladi.

Komediyada tipiklik muammosi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki soxta komik qahramonlar yaratish havosi va soxta komizmga tushib qolish ehtimoli bu yerda, ayniqsa, katta – bu tasvirning haqqoniyligiga salbiy ta’sir qiladi. Kulgi, quvnoq kayfiyat – bu hali komediya emas. Axir ko‘pincha kulgi komiklikning tashqi ko‘rinishlariga asoslanadi hamda kulgining o‘zi quruq vaqtichog‘likka, masxarabozlikka olib keladi. Masxarabozlik esa – bu komediyaning zaif ko‘lankasi xolos.

NATIJALAR

Komediya voqealari xarakterlar va qarama-qarshi fikrlar, o‘zaro istisno qilinuvchi manfaatlar, jiddiy, ko‘pincha murosasiz g‘oyaviy kurashda kechadi. Biroq bu kurash boshqacha – kulgilidir, u kulgi qo‘zg‘otadi. “Tragediyaning asosi,-yozadi V.G.Belinskiy,-tabiatiga ko‘ra dahshat, achinish uyg‘otuvchi yoki inson tabiatining fazilatlari bilan faxrlanishga majbur qiluvchi va axloqiy qonunning tantanasiga yo‘l ochuvchi fojiaviy kurashda bo‘lgani singari, komediyaning asosi ham – kulgi

¹ Пушкин А.С. Полн. собр. соч.-М: Сов.писатель. 1949. С. 516.

uyg‘otuvchi komik kurashdadir; biroq bu kulgida birgina xursandchilik emas, balki tahqirlangan insoniy fazilatlar uchun intiqom ham sezilib turadi va shu tarzda tragediyadagidan boshqacha yo‘l bilan, yana axloqiy qonun tantanasiga yo‘l ochiladi.”¹

MUHOKAMA

Darhaqiqat, komediyaning ko‘p asrlik tajribasi shundan guvohlik beradiki, uning asosiy konflikti kulgi paydo qiladigan ziddiyat asosida quriladi. Komediyalarda namoyon bo‘lganidek, bu kulgi o‘ta xilma-xil; muloyim, kinoyali, quvnoq va zaharli, nihoyat qayg‘uli va ma’yus tusga ega bo‘lishi mumkin, lekin u kulgili kurash oqibati sifatida hamisha mavjud.

Ayrim tadqiqotchilar esa komediyada, ayniqsa satirik komediyalarda kulgi bo‘lishi shart emas, deb hisoblaydilar. Jumladan, Yu.Borevning fikriga ko‘ra: “..ba’zan satiradagi alohida hissiyotli tanqid kulgi shaklida amalga oshirilmaydi (masalan, Shadrinning “Janobi Golovlyovlar”, Swift va Goyining qator grotesk obrazlari). Kulgisiz satira, agar o‘ziga xos hissiy tanqid ijodkorning g‘azab va nafrati kulgini bosib ketadigan o‘ta ravshanlikka, o‘ta yuksaklikka erishgan holdagina bo‘lishi mumkin. U mazkur kulgili hodisa mavjudligining fojiaviy oqibatlari, ayniqsa, aniq ko‘rinib turganda, kulgili hodisa insonlarning o‘ta og‘ir baxtsizligi va halokatini keltirib chiqaradigan darajada ijtimoiy xavfli bo‘lganda, shu munosabat bilan ijodkorning g‘azab va nafrati so‘nggi chegaragacha yetib borganida paydo bo‘ladi.”²

Bizningcha, ushbu mulohazada g‘oyat muhim jihat nazardan chetda qoldirilgan. G‘azab va nafrat odatda, bayon qilinayotgan hodisaning hissiy-estetik tahqirlanishi bilan birga kuzatiladi. Satirik ijodkor bexosdan ulug‘vor narsada arzimas, kulgili tomonni ko‘rib qoldi va shunday qilib, tashqi yuzaki, soxta qiyofani uning asl mohiyatidan ajratib oldi. Bularning hammasi qo‘silib kulgi uyg‘otmay qo‘ymaydi. To‘g‘ri, bu kulgi samimiyl, quvnoq kulgi emas, aksincha, kinoyali, zaharxanda va achchiq kulgidir.

¹ Белинский В.Г. Полн. собр. соч. том 3.-М.: Политиздат. 1955. С. 448.

² Борев Ю. О комическом. -М.: Искусство. 1957. С. 126-127.

Komediyaning janr xususiyatini belgilovchi asosiy yetakchi vosita bu komizm va uni targ‘ib etuvchi kulgi hisoblanadi. Satirik komediyalarda esa faqat kulgi hukmronlik qilib qolmasdan, unga dahshatli qo‘rqinch, chuqur qayg‘u, nafrat, qattiq ezilish, iztiroblar xarakteriga ega bo‘lgan tragik motivlar ham, dramadan esa ruhiy tashvishlanishlar, dramatik holatlar ham kirib borishi mumkin.

Ba’zan, satirik komediya bilan tragediya janrining bir-biriga yaqin turadigan jihatlari ham ko‘zga tashlanadi. Har ikki janrning bu xususiyati ham nomunosisib bo‘lgan vaziyatdan, voqeа-hodisalar tasviridan kelib chiqadi. To‘g‘ri, har ikkisida ham tasvirlash vositalari, qo‘llaniladigan usullar, mualliflarning pozitsiyalari turlicha bo‘ladi. Ammo bir jarayondan ikkinchi jarayonga o‘tib ketish hollari tez-tez sodir bo‘lib turishi mumkin. Chunki har ikki janr ham oqibatda, asl ma’naviyatni, toza axloqning tantanasi tomon olib borishi yoki shu rujni tasdiqlashi darkor. komediya ham, tragediya ham real hayotni aks ettirar ekan, komediyada tragizm, tragediyada komizm bo‘lishi tabiiy hol. Lekin ularning hayotni tasvirlash uslublari turlichadir. Bu tafovut umumiy ma’noda quyidagicha aks etadi: tragediyada har doim oxir oqibat oliv qadriyatlar xavf-xatarga, halokatga duchor bo‘ladi, lekin komediyalarda bunday bo‘lmaydi, undagi fikrlar kurashi oliv qadriyatlarga daxl etmaydi, aksincha, ularni qanday qilib bo‘lsa ham himoya qilishga harakat qiladi. Shunday ekan, hozirgi jamiyatimizda qabul qilingan umumiy qoidalarga qarshi bo‘lgan hamma narsa komediya ob’ekti bo‘lishi mumkin.

XULOSA

Biroq ko‘pincha shunday bo‘ladiki, jamiyatdagi illatlar va ularning “homiyilar” komediyavanisdan ancha kuchli, uni jim bo‘lishga majbur qiluvchi imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Va natijada komediyavanis ideallarining amalga oshishiga imkon qanchalik kam bo‘lsa, uning tanqidi ham shunchalik murosasiz va shafqatsiz kuchga ega bo‘ladi. Kulgi qo‘zg‘atish hamisha komediyavanislarning eng muhim maqsadlaridan biri bo‘lgan. Bu jihatdan qadimgi attika komediyasi tajribasi ibratlidir. Hatto buyuk Aristofan ham o‘z g‘oyalarini ilgari surish maqsadida fars elementlariga, ko‘pincha esa odobsizlikka ham murojaat qilgan, faqat ular tomoshabinni kuldirsса bas. Kulgisiz komediya moddalar almashinuviz hayot kabi notabiyyidir.